




AKADEMIYA
GOOGLE


RAQAMLI OB'KT
IDENTIFIKATORI



O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI,
IJTIMOIY FANLAR FAKULTETI BINOSI
"SOTSIOLOGIYA" KAFEDRASI



ZAMONAVIY DUNYONING IJTIMOIY MANZARASI VA JAMIYAT TUZILMALARI TRANSFORMATSIYASI

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.8032420>

Chop
etilgan sana:
2023-yil 20-may

KONFERENSIYA QUYIDAGI YO'NALISHLAR BO'YICHA FAOLiyAT YURITADI:

1. ZAMONAVIY IJTIMOIY VOQE'LIKNING O'ZIGA XOSLIGI VA ZAMONAVIY JAMIYAT DINAMIKASINI ANIQLASH
2. MINTAQAHOLISI QADRIYATLARINING DINAMIKASI
3. MINTAQANING IJTIMOIY-IQTISODIY MAYDONI: AN'ANALAR VA INNOVATSIYALAR
4. ZAMONAVIY DUNYO IJTIMOIY MANZARASINING TRANSFORMATSIYALASHUVI

XALQARO ILMIIY-AMALIIY KONFERENSIYA | ONLINE ZOOM PLATFORMA MATERIALLAR TO'PLAMI

TOSHKENT
2023-YIL 25-MAY

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORIJIY OLIY TA'LIM MUASSASALARI
PROFESSOR-O'QITUVCHILARI, YOSH TADQIQOTCHILAR, DOKTORANTLAR,
MAGISTRANTLAR VA IQTIDORLI TALABALAR



[HTTPS://NUU.UZ](https://nuu.uz)

OLY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
IJTIMOIY FANLAR FAKULTETI
SOTSILOGIYA KAFEDRASI
"IJTIMOIY FIKR" RESPUBLIKA JAMOATCHILIK FIKRINI O'RGANISH MARKAZI

ZAMONAVIY DUNYONING IJTIMOIY MANZARASI VA JAMIYAT TUZILMALARI TRANSFORMATSIYASI

xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyasi
(Toshkent, 25-may 2023-yil)
MATERIALLAR TO'PLAMI



2-BO'LIM

TOSHKENT-2023

KONFERENSIYANING TASHKILY QO'MITASI

Mas'ul muharrir:

Kholbekov Abdugani Jumanazarovich
sotsiologiya fanlari doktori, professor (Toshkent, O'zbekiston)

KONFERENSIYA TAXRIRY KENGASHI

Jiyanmuratova Gulnoz Sherbutayevna

sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (Toshkent, O'zbekiston)

Sabirova Umida Farxadovna

sotsiologiya fanlari doktori, dotsent (Toshkent, O'zbekiston)

Alikariyeva A'loxon Nuriddinovna

sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent (Toshkent, O'zbekiston)

Xusanova Xayriniso Tayirovna

sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent (Toshkent, O'zbekiston)

Axmedova Feruza Medetovna

sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dotsent (Toshkent, O'zbekiston)

Kalanova Sabohat Muradovna

sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (Toshkent, O'zbekiston)

Mirzaxmedov Xurshid Abdirashidovich

sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) v.b. dotsenti (Namangan, O'zbekiston)

Xaydarova Xilola Xislatovna

O'zMU doktoranti (Toshkent, O'zbekiston)

Ahmedova Mohinur Nu'monovna

O'zMU doktoranti (Toshkent, O'zbekiston)

DIZAYNER

@tadqiqotdesign (Namangan, O'zbekiston)

«Zamonaviy dunyoning ijtimoiy manzarasi va jamiyat tuzilmalari transformatsiyasi» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallar to'plami (Toshkent sh., 25-may 2023.) / mas'ul muh. A.J. Kholbekov - Toshkent: O'zMU, 2023. – 204 b.

MAQOLADA KELITIRILGAN DALILLARNING TO'G'RILIGI UCHUN MUALLIF MAS'ULDIR | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8060958>

YANGI O‘ZBEKISTONDA JAMOAT XAVFSIZLIGI TIZIMI TASHKIL ETILISHINING SOTSIOLOGIK JIHLTLARI

Kaxarova Nilufar

sotsiologiya kafedrası tayanch doktoranti (PhD)

O‘zbekiston Milliy universiteti

e-mail: kaxarovanilufar869@gmail.com

Annotatsiya: So‘nggi yillarda yuridik adabiyotlarda O‘zbekiston Respublikasining jamoat xavfsizligini ta‘minlash masalalari tobora ko‘proq o‘rganilmoqda, chunki bugungi kunda jamoat xavfsizligi butun dunyo hamjamiyati uchun dolzarb bo‘lgan global muammo hisoblanadi. Jamoat xavfsizligi tushunchasi inson hayotining muhim bir qismi bo‘lgani kabi uni ta‘minlovchi tashkilotlar ham mamlakatning asosiy qismlaridandir. Mamlakatning ichki tarkibiy qismlaridan hisoblangan jamoat xavfsizligi tashkilotlari ham birinchi navbatda tinchlik va farovonligini asrashga intiladi. O‘zida tinchlik va farovonlik kategoriyalari mazmun-mohiyatini umumlashtiruvchi jamoat xavfsizligi tushunchasi turli davrlarda mavjud tahdidlarga ko‘ra turlicha ifodalab kelingan va bugungi kunda har bir mamlakatning ichki va tashqi xavfsizligini shakllantirishda o‘ziga xos o‘rin tutmoqda. Ushbu maqolada jamoat xavfsizligi tushunchasi, yaqin sharq mamlakatlaridagi jamoat xavfsizligi tizimining tajribasi va O‘zbekistondagi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi sotsiologik tomonlama tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: jamoat xavfsizligi, konsepsiya, subyekt, ijtimoiy fikr, aholi, boshqaruv, tizim.

SOCIOLOGICAL ASPECTS OF THE ORGANIZATION OF THE PUBLIC SECURITY SYSTEM IN THE NEW UZBEKISTAN

Kaharova Nilufar

Doctoral student (PhD) of the Department of Sociology,

National University of Uzbekistan

Abstract: In recent years, legal literature has been increasingly studying the issues of public security of the Republic of Uzbekistan, since today Public Security is a global problem that is relevant for the entire world community. This article provides a sociological comprehensive analysis of the concept of Public Security, the experience of the public security system in the countries of the Middle East and the concept of Public Security in Uzbekistan.

Key words: Public Security, Concept, subject, Social Thought, population, management, system.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ta‘kidlaganidek “Xalqimizning xavfsizligi, tinchligi va osoyishtaligini saqlash bugun ham, kelajakda ham eng ustuvor vazifamiz bo‘lib qoladi. Chunki faqatgina tinchlik-osoyishtalik mamlakatimizning har tomonlama rivojlanishining asosiy kafolatidir” [1]. Ya‘ni, muayyan jamiyat yoki davlat uchun eng asosiy xavf-xatarlardan beri ichki tartibsizlikdir. Yuqorida ta‘kidlanganidek mamlakat uchun iqtisodiy, madaniy, mafkuraviy, ma‘naviy va boshqa turdagi xavf-xatarlarni jamoat xavfsizligi tashkilotlarining o‘zaro muvofiq harakatlari asosida bartaraf etish mumkin. Shu sababli ichki tartib qoidalarni nazorat qiladigan va jamoat xavfsizligini saqlaydigan tashkilot va markazlar uzoq zamonlardan beri barcha mamlakatlar uchun tinchlik va farovonlik kafolati bo‘lib kelmoqda.

Hozirgi innovatsion rivojlanish jadal tus olgan davrda, respublikamiz hududida jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta‘minlash sohasida ham zamonaviy tizimni joriy etib borishni taqozo etmoqda. Yangi O‘zbekistonda jamoat xavfsizligi tizimini tubdan isloh qilish va uning yangi, xorijiy



tajriba va milliy mentalitetlarga tayangan holda tizimi shakllanishini bosh maqsadi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6196-son farmonida belgilangan [2]. Farmon maqsadi Jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishning yaxlit tizimini shakllantirish, ichki ishlar organlarining eng quyi bo'g'indan respublika darajasigacha samarali faoliyatini yo'lga qo'yish va zamonaviy ish uslublarini joriy etish orqali mamlakatimizda huquq-tartibot va qonuniylikni mustahkamlash, aholining tinchligi va osoyishtaligini ta'minlash bo'lib, farmonda jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimida ichki ishlar organlari faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish va jamoat xavfsizligini ta'minlashdagi yangi mexanizmlar asosan ichki ishlar organlari bilan bog'liqligini ko'rishimiz mumkin. Xususan Ichki ishlar vazirligi tuzilmasida Jamoat xavfsizligi masalalari ilmiy-amaliy tadqiqot markazining va Jamoat xavfsizligi konsepsiyasining tashkil etilishidir.

Jamoat xavfsizligi tushunchasini ifodalovchi ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, faqat yuridik tomonlama o'rganilgan. Ammo jamoat xavfsizligi bu katta sotsial-huquqiy toifadir. shuning uchun ham jamoat xavfsizligini sotsial jihatdan o'rganib, uning sotsial jihatlarini tahlil qilish dolzarb mavzu hisoblanadi. Mamlakatimizda jamoat xavfsizligini tartibga solib, uning ham huquqiy ham sotsial tomonlama yoritib beruvchi va tartibga soluvchi me'yoriy hujjat bu O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasidir. Ushbu konsepsiya O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2021-yil 29-noyabr PF-27-son Farmoni asosida tasdiqlandi [3].

Farmonda jamoat xavfsizligini ta'minlashdagi ilg'or xorijiy va milliy tajribalar asosida ishlab chiqilgan hamda aholini har qanday tahdidlardan kafolatli himoya qilishga qaratilgan uchta katta loyiha va mexanizm tasdiqlanishi belgilangan. Bular:

1. O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasi
2. 2022-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini rivojlantirish strategiyasi
3. 2022-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini rivojlantirish strategiyasini 2022-yilda amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi".

O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasi 5 bobdan iborat bo'lib, birinchi bobda umumiy qoidalar keltirilgan. Unga ko'ra ushbu konsepsiya milliy xavfsizlikning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblangan jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi davlat siyosatini belgilovchi muhim hujjat hisoblanadi [3]. Shuningdek konsepsiyada ikki asosiy tushuncha ya'ni jamoat xavfsizligi va jamoat xavfsizligini ta'minlash ta'rif berilgan. Konsepsiyaga ko'ra jamoat xavfsizligi bu – jamiyatning qonunga xilof tajovuzlar, ijtimoiy va millatlararo nizolar, favqulodda vaziyatlar va boshqa tahdidlardan himoyalanganlik holati bo'lib, u jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi hamda insonning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarilishini ta'minlaydi. Konsepsiyada keltirilgan ta'rifda biz davlat xavfsizligiga yaqin ko'rinishda yoritilgan. Ilmiy tadqiqotlarda ham ko'pchilik olimlar va tadqiqotchilar jamoat xavfsizligi tushunchasini davlat yoki umumiy xavfsizlikka yaqin ravishda ta'riflaydilar. Misol uchun V.N Konin jamoat xavfsizligini ta'minlashda davlatning ichki ishlar vazirligi faoliyatini ko'radi va jamoat xavfsizligini ta'minlashdagi asosiy vazifalarni ichki ishlar xodimlari amalga oshirishini ta'kidlagan [4]. O'zbekiston respublikasida ham jamoat xavfsizligini ta'minlanishi bevosita ichki ishlar vazirligi hamda milliy gvardiya bilan bog'liqdir. Bu borada ichki ishlar vazirligi tizimidagi o'zgarishlar (jamoat xavfsizligi masalalari ilmiy-amaliy tadqiqot markazi va jamoat xavfsizligi departamentining tashkil etilishi) va Milliy gvardiya institutining 2021-yilda Jamoat xavfsizligi universiteti nomi bilan qayta nomlanishi yaqqol misoldir. Konsepsiyaning 2-bobida (Jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasini davlat tomonidan tartibga solish) jamoat xavfsizligini ta'minlovchi subyektlar ham konsepsiyada keltirilgan bo'lib ular O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Bosh prokuratura, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, mahalliy davlat hokimiyati organlaridan iborat. Konsepsiyada har bir subyektning vazifalari ham keltirilgan. 3-bob esa



konsepsiyani amalga oshirish mexanizmlari keng yoritilgan. Unda konsepsiyani amalga oshirish bo'yicha qonunchilikni takomillashtirishdan boshlanib maqsadli va manzilli dasturlarni ishlab chiqish, jamoat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan idoralararo amaliy o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish, malakali kadrlarni tayyorlash, ularni joy-joyiga qo'yish, tizimli malakasini oshirish va qayta tayyorlash, jamoat xavfsizligiga xatarlarning holati va darajalarini belgilovchi mezonlarni va asosiy ko'rsatkichlarni ishlab chiqish hamda joriy etish, joriy va istiqboldagi rivojlanishini prognoz qilish, mavjud va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tahdidlarni belgilash, ularni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish kabi va boshqa mexanizmlar keltirilgan. Ammo sotsiologik tomonlama tahlil qiladigan bo'lsak, mexanizmlar qatorida ijtimoiy fikrni o'rganish va sotsiologik tadqiqotlar orqali tizimni tashkil etish jihatlari keltirilmagan. Konsepsiyani 4-bobi kutilayotgan natijalar bo'lib, unda konsepsiyani amalga oshirishning pirovard natijasi jamoat xavfsizligini, aholining tinchligi va osoyishtaligini ta'minlashning sifat jihatidan yangi tizimini samarali tatbiq etish, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlashning ishonchli va samarali mexanizmlarini joriy etish hisoblanishi keltirilgan. 5-bob yakunlovchi bo'lib, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari mansabdor shaxslari o'z xizmat majburiyatlari yuzasidan jamoat xavfsizligini ta'minlash borasida zarur chora-tadbirlar belgilanishi hamda ularning o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlamaganligi uchun qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortilishi mumkinligi qayd etilgan.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, konsepsiya mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta'minlashni tubdan isloh qiluvchi normativ hujjatdir. Unda jamoat xavfsizligini ta'minlash mohiyati, uning natijasida erishiladigan yutuqlar, mamlakat kelajagini yangi bosqichga olib chiqishini ko'rishimiz mumkin. Jamoat xavfsizligi davlat xavfsizligiga yaqin ammo ko'proq fuqaroning ijtimoiy jihatlari bilan bog'liq bo'lganligi uchun uni amalga oshirishda sotsiologik va psixologik yondashuvlarni va tadqiqotlarni amalga oshirish, ijtimoiy fikrni o'rganish va uni jamoat xavfsizligini ta'minlash mexanizmlarida qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar:

1. Mudofaani boshqarish milliy markazida 13-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev raisligida Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishidagi nutqi. <https://xs.uz/uz/post/qurolli-kuchlarni-rivozhlantirishning-navbatdagi-muhim-bosqichi-vazifalari-belgilandi>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 26.03.2021-yildagi PF-6196-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2021-yil 29-noyabr PF-27-son Farmoni.
4. Конин В.Н. Обеспечение общественной безопасности как направление деятельности российской полиции // Административное право и процесс. 2013. № 1. – С. 63-64.

IBN SINO ILMIY MEROSI – IJTIMOYIY TARAQQIYOT UCHUN MUHIM MANBA SIFATIDA

Adilova Rayxon

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat Boshqaruvi akademiyasi stajyor-tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ajdodlar ilmiy merosini o'rganish barcha davrlarda ijtimoiy taraqqiyot asosi bo'lib xizmat qilgan. Shu nuqtayi nazardan, ushbu maqolada Abu Ali ibn Sinoning ijtimoiy-siyosiy g'oyalari, uning jamoat, jamiyat, fozil jamiyat haqidagi qarashlari xususida qisqacha ilmiy mulohazalar bayon etilgan.

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT
I-SHO'BA. MINTAQA AHOLISI QADRIYATLARINING DINAMIKASI

MEHRNING IJTIMOIIY MUNOSABATLARNI POZITIV TRANSFORMATSIYALASH IMKONIYATLARI.....	6
Karimov Bobir	
HARBIY SOTSILOGIYA: SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	9
Xaydarov Abror, Mirjavxarova Farida	
SHAHAR EKOTIZIMINI BOSHQARISHDA KOPENGAGEN TAJRIBASI.....	13
Kalonov Komil, Xaydarova Xilola	
КОМАНДООБРАЗОВАНИЕ КАК ПРОЦЕСС В КОЛЛЕКТИВЕ ОРГАНИЗАЦИИ.....	16
Сабирова Умида, Хусанбаева Диёра	
YOSHLAR IJTIMOIIY-SIYOSIIY FAOLIGINI OSHIRISH – USTUVOR VAZIFA.....	18
Jiyanmuratova Gulnoz, Nurqulov Bunyod	
YOSHLAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI VA OILA HAMKORLIGI.....	22
Axmedova Feruza	
O'ZBEKISTONDA IJTIMOIIY HIMOYA SOHASINING INSTITUTSIONAL O'ZGARISHI.....	25
Xushvaqova Nargiza	
RAQAMLI JAMIYATDA INTERNET KOMMUNIKATSIYALARINING JAMOATCHILIK FIKRIGA TA'SIRI.....	28
Burxanov Xusniddin	
ZAMONAVIIY IJTIMOIIY VOQELIKNI AKS ETTIRISHDA AHOLINI RO'YXATGA OLIISH VA UNING SAVOLNOMA SHAKLLARINING O'RNI.....	32
Yeshniyazov Djamshid	
O'ZBEKISTONDA YAQIN TARIXDA MIGRATSIYA JARAYONLARI KECHISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	35
Axmedova Dildora	
СОЦИАЛЬНОЕ ПРОИСХОЖДЕНИЕ В ОБРЕТЕНИИ ВЫСОКОГО СТАТУСА В ОБЩЕСТВЕ.....	37
Аликариев Нуриддин, Халикова Сахобат	
JAMIYATDAGI IJTIMOIIY STRATALARNING TARIXIIY TALQINI.....	40
Bekmurodov Hasan	
MIGRATSIYA OQIMIGA TORTUVCHI VA ITARUVCHI FAKTORLARNING TA'SIRI.....	42
Ahmedova Shahnozaxon	
YOSH RAHBARLARDA BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	44
Hakimova Anora	
ZAMONAVIIY DUNYONING IJTIMOIIY MANZARASI VA JAMIYAT TUZILMALARI TRANSFORMATSIYASI.....	46
G'ofurov Otabek	
TA'LIM MUASSASALARIDA IJTIMOIIY FAOLLIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH – MUHIM MASALA.....	49
G'oyibov Elyor	
СОЦИАЛЬНАЯ ИЕРАРХИЯ И СОЦИАЛЬНАЯ МОБИЛЬНОСТЬ: КАК СОЦИАЛЬНЫЙ СТАТУС ОПРЕДЕЛЯЕТ ВОЗМОЖНОСТИ И ПЕРСПЕКТИВЫ.....	52
Турсунов Диёр	

II-SHO'BA. MINTAQA AHOLISI QADRIYATLARINING DINAMIKASI

KEKSAYISH FENOMENI: QADRIYATLARDAGI O'ZGARISHLAR.....	56
Eryigitova Lobar	
GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR IJTIMOIIYLASHUVI VA DUNYOQARASHI SHAKLLANISHIDA DINIIY OMILNING ROLI.....	60
Xaydarov Abror, Sotvoldiev Asqarali Shuhrat o'g'li	

VYETNAM QADRIYATLARINING O'ZGARISHI VA XOTIN-QIZLARINING IJTIMOYIY HOLATI.....	62
Nurullayeva U.N.	
YANGI O'ZBEKISTON – IJTIMOYIY DAVLAT.....	66
Ibragimov Jahongir, Ablakulova Sitara	
JAMIYATDA XOTIN-QIZLAR MUHOFAZASI VA ULARGA BO'LGAN EHTIROM.....	70
Mirsagatova Dinara	
ИНФОРМАЦИОННЫЙ ДОСУГ СТУДЕНТОВ.....	75
Решетников Иван, Иноятов Саидакбархон	
NOGIRONLIGI BO'LGAN YOSHLARGA IJTIMOYIY XIZMATLAR KO'RSATISH TIZIMINI SHAKLLANISHINING XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI (G'ARBIY YEVIROPA VA AQSH MISOLIDA).....	78
Choriyeva Dilafruz	
MINTAQANING IJTIMOYIY-IQTISODIY MAYDONI: AN'ANALAR VA INNOVATSIYALAR...82	82
Ernazarov B.O., Sultonova O.A.	
«HAMKORLIK» TUSHUNCHASI VA UNING SIYOSIY TAVSIFI.....	85
Jaysanov Abduvahob	
SUBMADANIYATLAR VA ULARNING YOSHLAR ONGIGA TA'SIRI.....	88
Rashidova Shaxnoza	
MILLATNING ETNIK O'ZLIKNI ANGLASH JARAYONI.....	91
Кадирова Якитжан	
QADIMGI YUNON IJTIMOYIY-MADANIY TAFAKKURI AL-FOROBIY MA'NAVYIY-AXLOQIY TA'LIMOTI MANBAI SIFATIDA.....	94
Yusubov Jaloliddin	
O'RTA OSIYODAGI DAVLAT BOSHQARUVIGA DOIR SOTSIOLOGIK TA'LIMOTLAR TARIXI.....	97
Abdullayev Akmal	

III-SHO'BA. MINTAQANING IJTIMOYIY-IQTISODIY MAYDONI: AN'ANALAR VA INNOVATSIYALAR

KEKSA AYOLLARNING SALOMATLIGI VA O'Z SOG'LIG'INI QADRLASH DARAJASI.....	100
Xodjayev Sobir	
HUQUQBUZARLIK VA JINOYATCHILIKNI OLDINI OLISHDA JAMOATCHILIK FIKRINING AFFILIATIV IMKONIYATLARI.....	104
Shokirov Sh.	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ASOSIY KAPITALGA XORIJIY INVESTITSIYA VA KREDITLAR.....	108
Saparov Kuatbay	
YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLAR O'RTASIDA RAQOBAT MUHITINI SHAKLLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL JIHLTLARI.....	110
Hamzayev Bekzod	
РАЗВИТИЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ ТРАНСПОРТНЫХ КОРИДОРОВ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА.....	113
Катгакулова Наргиза	
YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLAR IJTIMOYIY KAPITALINI YUKSALTIRISH.....	116
Astanov Axunjon	
DAVLAT BOSHQARUVIDA INSON QADRINI YUKSALTIRISHNING IJTIMOYIY MEKANIZMLARI.....	118
A'zamova Kumush	
IJTIMOYIY KAPITALINI YOSHLAR TURMUSH SIFATIGA TA'SIRI.....	120
Bozorova O'lmasxon	
МОТИВАЦИЯ И СТИМУЛИРОВАНИЕ ПЕРСОНАЛА В ТРУДОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ....	123
Аликареева Аълохон, Убайдуллаева Камилла	
BANDLIK VA MEHNAT FAOLIYATINI TADQIQ ETISH BORASIDAGI NAZARIYALARNING TARIXIY ASOSLARI.....	125
Fayzillayeva Visola	

OILAVIY NIZOLARNI HAL QILISHDA MEDIATORLIK FAOLIYATINING ASOSIY YO'NALISHLARI.....	129
Teshayev Doniyor	
СУИЦИДАЛЬНОЕ ПОВЕДЕНИЕ КАК ОБЪЕКТ ИЗУЧЕНИЯ СОЦИОЛОГИИ.....	133
Султанова Феруза	
ZAMONAVIY JAMIYAT SHAROITIDA IJODKOR YOSHLAR SOTSIAL QIYOFASINING O'ZIGA XOS SHAKLLARI.....	136
Dulanboeva Oygul	
IJTIMOIIY TARMOQLARDA YOSHLAR AXBOROT PSIXOLOGIK XAVFSIZLIGIGA TAHDIDLAR.....	139
Erkinov Javohir	

IV-SHO'BA. ZAMONAVIY DUNYO IJTIMOIIY MANZARASINING TRANSFORMATSIYALASHUVI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI MUTAXASSISI BILAN O'QUV MARKAZLARI FAOLIYATI BO'YICHA SUHBAT VA UNING NATIJALARI XUSUSIDA.....	142
Kalanov Komil, Asamova Umida	
THE TRANSFORMATION OF BRITISH FOREIGN POLICY AFTER LEAVING THE EUROPEAN UNION.....	145
Rasulova Gavhar	
ZAMONAVIY DUNYODA RESPUBLIKANING AGRAR SOHASIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOT NATIJALARINING STATISTIK TAHLILI.....	148
Berdiqulov Qobil	
DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHISI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHDA YUMSHOQ KO'NIKMALARNING AHAMIYATI.....	151
Mannanova Nilufar	
IJTIMOIIY BOSHQARUVDA IDENTIKLIK VA BOSHQARUV MODELLARI.....	153
Musurmanov N.A.	
YANGI O'ZBEKISTONDA JAMOAT XAVFSIZLIGI TIZIMINI TASHKIL ETILISHINING SOTSIOLOGIK JIHLTLARI.....	157
Kaxarova Nilufar	
IBN SINO ILMIY MEROSI – IJTIMOIIY TARAQQIYOT UCHUN MUHIM MANBA SIFATIDA.....	159
Adilova Rayxon	
FAROSAT SO'ZINING SHARQ MANBALARIDAGI LUG'AVIY TALQINI.....	161
Raximbayeva Oftobxon	
ОСОБЕННОСТИ ИЗУЧЕНИЯ ДЕЛИКВЕНТНОГО ПОВЕДЕНИЯ.....	163
Талипов Сухроб	
JAMOAVIY ONGGA TA'SIR MEKANIZMLARI TASNIFI.....	166
Saidova Maftunaxon	
IJTIMOIIY ISHCHI KASBI.....	169
Ibragimov Jahongir, Eshnazarova Madinaoy	
ВИЗУАЛЛИК ЛИНГВИСТИК КОДГА МУҚОБИЛ ТИЗИМ СИФАТИДА.....	171
Нажмиддинова Гулноза	
TALABALAR SIYOSIY MADANIYATINI OSHIRISHDA IJTIMOIIY ISHCHILARNING ROLI.....	173
Ibragimov Jahongir, Abduxoliqova Husniya	
O'ZBEK DAVLATCHILIGIDA IJTIMOIIY ISH VA IJTIMOIIY SIYOSAT AN'ANALARI.....	176
Ibragimov Jahongir, Nomozova Shoxsanam	
OMMAVIY NOROZILIK HARAKATLARINING KELIB CHIQISHIDA IJTIMOIIY TARMOQLARNING ROLI (XORIJ DAVLATLARI MISOLIDA).....	179
Xasanov Boburjon	
INTERNET-GLOBAL AXBOROT TARMOG'INING YOSHLAR HAYOTIGA KO'RSATGAN TA'SIRI.....	182
Hamrayeva Vasila	

«НАМКORLIK» TUSHUNCHASI VA UNING SIYOSIY TAVSIFI.....	184
Jaysanov Abduvahob	
AXBOROT MAYDONI YOSHLARNI IJTIMOIYLASHTIRISH OMILI SIFATIDA.....	187
Ahmedova Mohinur	
СПЕЦИФИКА ВЛИЯНИЯ ДЕТСКО-РОДИТЕЛЬСКИХ ОТНОШЕНИЙ НА ПРОЦЕСС СОЦИАЛИЗАЦИИ ДЕТЕЙ-СИРОТ.....	190
Туракулова Азиза	
ЗАМОНАВИЙ ТАРАҚҚИЁТДА ХОТИН-ҚИЗЛАРНИНГ ИЖТИМОЙ ИДЕНТИФИКАЦИЯСИ.....	192
Абдирашид Мирзахмедов, Ашурали Азимов	
ТАЛАБА-ЁШЛАРНИ ИЛМЙ ТАДҚИҚОТ ИШЛАРИГА ЙЎНАЛТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК АСОСЛАРИ.....	197
Нодира Махмудовна Мухаммадиева	

«Zamonaviy dunyoning ijtimoiy manzarasi va jamiyat tuzilmalari transformatsiyasi» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallar to'plami (Toshkent sh., 25-may 2023.) / mas'ul muh. A.J. Kholbekov - Toshkent: O'zMU, 2023. – 204 b.

KONFERENSIYANING TASHKILY QO'MITASI

Mas'ul muharrir:

Kholbekov Abdugani Jumanazarovich
sotsiologiya fanlari doktori, professor (Toshkent, O'zbekiston)

KONFERENSIYA TAXRIRIY KENGASHI

Jiyanmuratova Gulnoz Sherbutaevna

sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (Toshkent, O'zbekiston)

Sabirova Umida Farxadovna

sotsiologiya fanlari doktori, dotsent (Toshkent, O'zbekiston)

Alikariyeva A'loxon Nuriddinovna

sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent (Toshkent, O'zbekiston)

Xusanova Xayriniso Tayirovna

sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent (Toshkent, O'zbekiston)

Axmedova Feruza Medetovna

sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dotsent (Toshkent, O'zbekiston)

Kalanova Sabohat Muradovna

sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (Toshkent, O'zbekiston)

Mirzaxmedov Xurshid Abdirashidovich

sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) v.b. dotsenti (Namangan, O'zbekiston)

Xaydarova Xilola Xislatovna

O'zMU doktoranti (Toshkent, O'zbekiston)

Ahmedova Mohinur Nu'monovna

O'zMU doktoranti (Toshkent, O'zbekiston)

DIZAYNER

@tadqiqotdesign (Namangan, O'zbekiston)